MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIVASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN)	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamiyev Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afurovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afurovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IKTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

B.B.Mambetnazarov

Innovatsion texnologiyalar universiteti
"Moliya va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti,
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Tureev Atabek Abatovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda agrar sohada raqamli boshqaruv tizimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yechimlardan samarali foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishning iqtisodiy natijalarga ijobiy ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the issues of increasing the economic efficiency of agricultural production through the implementation of digital technologies. The study substantiates the importance of using digital management systems, information and communication technologies, and innovative solutions effectively in the agricultural sector. It also examines the positive economic impact of process automation, rational resource utilization, and data-driven decision-making.

Key words: digital technologies, agriculture, economic efficiency, innovation, digital economy.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения экономической эффективности сельскохозяйственного производства посредством внедрения цифровых технологий. В исследовании обоснована важность эффективного использования цифровых систем управления, информационно-коммуникационных технологий и инновационных решений в аграрной сфере. Также изучено положительное влияние автоматизации производственных процессов, рационального использования ресурсов и принятия решений на основе данных на экономические результаты.

Ключевые слова: цифровые технологии, сельское хозяйство, экономическая эффективность, инновации, цифровая экономика.

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sektori nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va resurslardan oqilona foydalanish masalalarida ham muhim o'rin tutmoqda [1].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida agrar tarmoqni transformatsiya qilish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, monitoring tizimlarini joriy etish hamda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish imkonini bermiqda [2].

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi – aqlli sug'orish tizimlari, dronlar, GPS kuzatuv vositalari, sensorlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali hosildorlikni oshirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda ekologik yukni kamaytiradi va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotda samarali qo'llash imkonini yaratadi [3].



Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning iqlim o'zgarishidan eng ko'p ta'sirlanayotgan hududlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun katta salohiyatga ega. Hududda suv resurslarining cheklanganligi, iqlimning quruqlashuvi va tuproq degradatsiyasi sharoitida raqamli yechimlardan foydalanish hosildorlikni barqaror saqlab qolish, resurslardan tejamkor foydalanish va iqtisodiy samarani oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Qoraqalpog'iston sharoitida raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarini aniqlashdan iborat bo'lib, bu jarayonda qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning roli va ahamiyatini tahlil qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yechimlarni o'rganish, fermer xo'jaliklarida raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning iqtisodiy natijalarini baholash, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya dasturlari samaradorligini tahlil qilish hamda hududiy sharoitda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasida agrar sohani raqamlashtirish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2020-yil) va "Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish konsepsiyasi" (2022-yil) mazkur yo'nalishdagi eng muhim dasturiy hujjatlar hisoblanadi. Shu asosda olib borilgan ushbu tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy natijalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish masalalari xalqaro miqyosda jadal rivojlanib, raqamli texnologiyalar agrar sektorning barqaror va samarali rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli yechimlar ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarini optimallashtirib, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi [6].

Porter va Heppelmann (2014) o'z tadqiqotlarida "aqlli ishlab chiqarish" konsepsiyasini tahlil qilib, raqamli texnologiyalar korxonalarga real vaqt rejimida monitoring o'tkazish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muvofiqlashtirish va umumiy samaradorlikni oshirish imkonini berishini asoslab bergan [7]. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD, 2021) hisobotlarida qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt, dronlar, bulutli hisoblash tizimlari hamda GPS monitoring texnologiyalari yordamida hosildorlikning 20–40 foizgacha oshganligi qayd etilgan [8].

Jahon banki (2020) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti — FAO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar agrar sektorni transformatsiya qilishda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, raqamli platformalar orqali fermerlar kreditlar, subsidiyalar, bozor narxlarini hamda ob-havo sharoiti haqidagi ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [9]. Bu holat ularning iqtisodiy qarorlarini yanada asosli va samarali qabul qilish imkonini bermoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'izistonda ham qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha davlat dasturlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Masalan, Qozog'istonda "Smart Farm" loyihasi doirasida raqamli monitoring tizimi joriy etilib, natijada suv va o'g'it sarfi 30 foizga qisqargani kuzatilgan [10]. O'zbekistonda esa "Agroplatforma", "E-Fermer" va "Agrosug'urta" kabi raqamli tizimlarning ishlab chiqilishi fermer xo'jaliklari o'rtasida ma'lumot almashinuvi samaradorligini oshirib, davlat xizmatlariga tezkor kirish imkoniyatini kengaytirgan [11].

Mahalliy olimlar ham agrar sohada raqamli transformatsiyaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganmoqdalar. Jumladan, A.X. Abdullaev (2021) o'z tadqiqotida qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaralarini tahlil qilib, raqamli yechimlar yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish modellari ishlab chiqilganini ta'kidlagan [12]. Shuningdek, M. Rasulov (2022) o'z ilmiy ishida O'zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun zarur infratuzilma va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish lozimligini asoslab bergan [13].

Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida esa, S. Allamberganova (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati, xususan aqlli sug'orish tizimlari va dronlar yordamida hosildorlikni prognozlash usullarining samaradorligi tahlil qilingan [17]. Ushbu tadqiqotlar mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning amaliy natijalarini yaqqol ko'rsatadi.

Natijada, xalqaro va milliy miqyosda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlamoqdaki, raqamli texnologiyalar agrar ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy natijalarni barqarorlashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur adabiyotlar tahlili ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Qoraqalpog'iston sharoitida raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash uchun mustahkam ilmiy-nazariy asos yaratadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks, tizimli va tahliliy yondashuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, tizimli tahlil metodi yordamida qishloq xo'jaligi sektorida raqamli texnologiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari, ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy tuzilmasi va ularning o'zaro bog'liqligi chuqur o'rganildi. Ushbu metod raqamlashtirish jarayonining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki (texnologik, mehnat, kapital) va tashqi (bozor, davlat siyosati, infratuzilma) omillarni tizimli tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Ikkinchidan, solishtirma tahlil metodi asosida O'zbekiston, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi xalqaro tajriba bilan — jumladan, Qozog'iston, Turkiya, Niderlandiya va Janubiy Koreya kabi ilg'or davlatlar misolida qiyoslab o'rganildi. Bu metod mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda ilg'or tajribalarni aniqlash, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga joriy etish imkonini yaratdi.

Uchinchidan, statistik tahlil metodi yordamida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, shuningdek, FAO va Jahon banki ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi, ishlab chiqarish hajmlari, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda hosildorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Shuningdek, ekspert baholash va so'rovnomalar metodlari qo'llanildi. Tadqiqot davomida hududdagi 50 ga yaqin fermer xo'jaliklari rahbarlari, agronomlar, raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar hamda mahalliy hokimlik vakillari bilan intervyular o'tkazildi. Mazkur yondashuv raqamli yechimlarning amaliy samaradorligini baholash, joriy etish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda infratuzilmaning rivojlanish darajasini o'rganish imkonini berdi.

Bundan tashqari, iqtisodiy modellashtirish metodi asosida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida hosildorlik va ishlab chiqarish xarajatlarida yuz beradigan o'zgarishlarni baholovchi shartli model ishlab chiqildi. Ushbu model orqali raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari — foydalilik darajasi, resurs tejamlorligi va ishlab chiqarish unumdorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

Natijada, ishlab chiqilgan tadqiqot metodologiyasi turli ilmiy yondashuvlar — tizimli, solishtirma, statistik va ekspert tahlillarini o'zida mujassam etgan holda, Qoraqalpog'iston sharoitida qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning iqtisodiy hamda tashkiliy samaradorligini aniqlashga qaratildi. Ushbu metodologik asoslar tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligi, amaliy ahamiyati va taklif etilayotgan yechimlarning hayotiylikligini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Tahlil jarayonida 2020–2024-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar, fermer xo'jaliklari bilan o'tkazilgan intervyular, shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi va FAO ma'lumotlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan fermer xo'jaliklarida hosildorlik 15–25 foizga, ishlab chiqarish samaradorligi esa o'rtacha 18–22 foizga oshgan. Ushbu ijobiy o'zgarishlarning asosiy sabablari sifatida avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlarining joriy etilishi, agrodron texnologiyalaridan foydalanish, raqamli monitoring dasturlarining tatbiqi va GPS nazorati orqali resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatining kengaygani ta'kidlanadi.

Tahlil natijalari, shuningdek, suv va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Masalan, raqamli sug'orish tizimlari yordamida suv sarfi o'rtacha 20 foizga kamaygan bo'lib, bu suv tanqisligi sharoitida muhim iqtisodiy ustunlik yaratgan. Raqamli texnologiyalar yordamida elektr energiyasi iste'moli ham 25 foizgacha qisqargan, chunki fermer xo'jaliklarida quyosh panellari va energiya tejamlor nasos tizimlari keng qo'llanilmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qishloq xo'jaligini raqamlashtirishga qaratilgan grant va subsidiyalar fermerlar uchun texnik, tashkiliy hamda moliyaviy imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan xo'jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlari kamaygan, mahsulot tannarxi esa o'rtacha 10–15 foizga pasaygan. Bu esa raqamlashtirishning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham ijobiy samara berayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).



1-jadval. Fermer xo'jaliklarida raqamli texnologiyalar ta'sirida samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Raqamli texnologiyalar joriy etilgan xo'jaliklar	Raqamli texnologiyalar joriy etilmagan xo'jaliklar	O'zgarish (%)
Hosildorlik (tonna/ga)	5,2	4,2	+23,8%
Suv sarfi (m ³ /ga)	320	400	-20,0%
Energiya sarfi (kWh/ga)	150	200	-25,0%
Ishlab chiqarish tannarxi (so'm/kg)	2 800	3 300	-15,2%

Jadval tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida hosildorlik sezilarli darajada oshgan, resurs sarfi kamaygan va ishlab chiqarish tannarxi pasaygan. Ushbu o'zgarishlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini bevosita oshirganini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri — resurslarni boshqarish jarayonining optimallashtirilganidir. Masalan, dronlar yordamida ekin maydonlarini kuzatish orqali o'g'it va pestitsidlar aniq miqdorda qo'llanilgan, natijada agrotexnik xarajatlar 10–12 foizga qisqargan. Shuningdek, raqamli ma'lumotlar tahliliga asoslangan hosil prognozlari ishlab chiqilib, bozor narxlariga mos rejalashtirish samarali tarzda amalga oshirilgan.

Fermer xo'jaliklarining daromad tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni faol qo'llayotgan xo'jaliklarda sof foyda 2023-yilda o'rtacha 22 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli yechimlarning iqtisodiy samaradorligini yaqqol isbotlaydi va ularning agrar ishlab chiqarish barqarorligiga ijobiy ta'sirini namoyon etadi.

Ekologik nuqtayi nazardan ham ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Raqamli texnologiyalar yordamida chiqindilar hajmi kamaygan, suv va o'g'it resurslari tejankorlik bilan ishlatilgan. Natijada ekologik yuklama pasaygan hamda qishloq xo'jaligida barqaror ishlab chiqarish modeli shakllanayotganini ko'rish mumkin.

Ekspert intervyulari natijalariga ko'ra, fermerlar raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini masofadan nazorat qilish, hosildorlikni aniq prognozlash, xarajatlarni kamaytirish va risklarni samarali boshqarish, shuningdek ekologik tozalikka erishish kabi ustunliklarga ega bo'lganliklarini ta'kidlaganlar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida qishloq xo'jaligini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish iqtisodiy jihatdan foydali, ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy jihatdan zarur yo'nalish hisoblanadi. Tahlil yakunlari esa raqamli transformatsiya nafaqat texnik modernizatsiya jarayoni, balki boshqaruv madaniyati va iqtisodiy tafakkurdagi tub yangilanish ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, fermer xo'jaliklarida raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish kelgusida hududning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tatbiq etish fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ham ta'minlamoqda. Natijalar hosildorlikning o'rtacha 15–25 foizga oshgani, suv va energiya resurslari sarfining esa 20–25 foizga kamaygani bilan ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli yechimlar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, monitoring tizimlarini takomillashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermogda.

Fermer xo'jaliklarida raqamli boshqaruv tizimlari, agrotexnik monitoring platformalari hamda avtomatik sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish orqali ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini optimallashtirish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki suv va energiya resurslaridan foydalanishning tejankor mexanizmlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, quyosh panellari, shamol generatorlari va kichik gidroenergiya tizimlaridan foydalanish ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini mustahkamlaydi hamda energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot tamoyillarining uyg'unlashuvi fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ekologik sertifikatlash tizimini kengaytirish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish orqali fermer xo'jaliklari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham o'z mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishning kafolati sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda umuman O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorida barqaror rivojlanishning yangi bosqichiga zamin yaratmogda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E., & van der Linde, C. Green and Competitive: Ending the Stalemate. Harvard Business Review, 1995.
2. Мамбетназаров, Б. Қишлоқ хўжалигида тадбиркорлик субъектларининг ривожлантириш истиқболлари. // Scienceproblems.uz. Учредители: ООО "Scienceproblems team", 2024, Т. 3, № 12/1.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4889-son qarori "2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida." <https://lex.uz/docs/-5100705>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida." <https://lex.uz/ru/docs/-7369703?ONDATE=02.06.2025>
5. Mambetnazarov, B. B., & Allayarov, S. S. Qoraqalpog'iston Respublikasida oilaviy xo'jaliklar kooperatsiyasini rivojlantirishga sinergetik yondashuv. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2021, T. 1, № 10, pp. 589–595.
6. Tilman, D., & Clark, M. Global diets link environmental sustainability and human health. Nature, 2014, Vol. 515, pp. 518–522.
7. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review, 2014, Vol. 92(11), pp. 64–88.
8. OECD. Digital Opportunities for Better Agricultural Policies. Paris: OECD Publishing, 2021. DOI: 10.1787/943e64f7-en.
9. The World Bank. Digital Agriculture: The Future of Farming in the Digital Age. Washington, DC: World Bank, 2020.
10. FAO. Digital Agriculture Transformation: The Strategic Framework 2022–2030. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2022.
11. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan. Agroplatforma and E-Farmer Projects Report. Tashkent, 2023.
12. Abdullaev, A. X. Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, № 5, 44–53-b.
13. Rasulov, M. O'zbekiston qishloq xo'jaligida raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, 2022, № 2, 61–70-b.
14. Allamberganova, S. Qoraqalpog'iston sharoitida suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Amudaryo ilmiy jurnali, 2023, № 3, 25–33-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
